


NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1- avgust holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- avgust holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 26 170 tani tashkil etadi, shundan 21 653 tasi yoki 82,7 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,5 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 97,9 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		Tadbirkorlik subyektlari	<i>shundan:</i>
			Kichik biznes subyektlari
2025	26 170	21 810	21 653
2024	26 576	22 277	22 113
2023	27 517	23 236	23 082
2022	35 064	30 715	30 548
2021	33 754	29 445	29 299

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Namangan shahrida – 31,3 foiz, Chust tumanida – 8,4 foiz, Pop – 7,5 foiz, Chortoq – 6,4 foiz, To'raqo'rg'on – 6,3 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonidagi salmoqli ulushi Namangan shahrida – 85,0 foiz va 84,1 foiz, Chust – 84,5 va 83,8 foiz, Chortoq – 83,1 foiz va 82,8 foiz hamda Namangan – 84,3 foiz va 83,9 foiz tumanlarga to'g'ri keldi

	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		Tadbirkorlik subyektlari	<i>shundan:</i>
			Kichik biznes subyektlari
Mingbuloq tumani	1 452	1 201	1 192
Kosonsoy tumani	1 530	1 239	1 235
Namangan tumani	1 519	1 281	1 274
Norin tumani	1 397	1 153	1 147
Pop tumani	1 965	1 598	1 592
To'raqo'rg'on tumani	1 636	1 364	1 354
Uychi tumani	1 522	1 268	1 256
Uchqo'rg'on tumani	1 523	1 242	1 235
Chortoq tumani	1 664	1 382	1 377
Chust tumani	2 205	1 863	1 848
Yangiqo'rg'on tumani	1 571	1 260	1 259
Namangan shahar	8 186	6 959	6 884
<i>Shundan Davlatobod t.</i>	<i>2 028</i>	<i>1 668</i>	<i>1 643</i>
<i>Yangi Namangan</i>	<i>1 911</i>	<i>1 706</i>	<i>1 686</i>

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- avgust holatiga 33,9 foizni (40,9 foiz va 40,9 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 16,2% (19,4% va 19,3%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 6,4% (7,5% va 7,5%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 662	1 637	1 630
Sanoat	4 246	4 241	4 184
Qurilish	1 350	1 335	1 327
Savdo	8 859	8 857	8 832
Tashish va saqlash	950	949	944
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 320	1 318	1 313
Axborot va aloqa	375	343	343
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	880	657	652
Boshqa turlar	6 528	2 473	2 428

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025- yil 1- avgust holatiga ko'ra, 21 810 ta faol tijorat korxonalaridan 17 676 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	17 676	81,1
Xususiy korxonalar	3 016	13,8
Oilaviy korxonalar	899	4,1
Aaksiyadorlik jamiyati	14	0,1
Boshqalar	205	0,9

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 249 ta korxonalardan 102 tasi qo'shma korxonalar va 147 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1- avgust holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 34 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasida 53 tadan 63 taga (o'sish 10 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasidagi korxonalar sonining 14 tadan 21 taga, (o'sish 7 taga), sanoat sohasida 93 tadan 98 taga (o'sish 5 taga) va ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	249	102	147
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21	9	12
Sanoat	98	44	54
Qurilish	12	5	7
Savdo	63	24	39
Tashish va saqlash	8	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	1	4
Axborot va aloqa	8	3	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	3	4
Boshqa turlar	27	9	18

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Namanganda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 62 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,2 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (19,9%), Turkiya (15,0%), Janubiy Koreya (6,4%) va Qozog'iston (4,9%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	267	116	152
Xitoy	62	20	42
Rossiya	53	21	32
Turkiya	40	11	29
Janubiy Koreya	17	7	10
Qozog'iston	13	10	3
Tojikiston	11	8	3
Hindiston	6	4	2
Qirg'iz.Respublikasi	6	3	3
Germaniya	5	4	1
Eron	5	2	3
BAA	5	2	3
Ozarbayjon	5	3	2
Isroil	3	1	2
Yaponiya	3	3	
Italiya	2	2	
Niderlandiya	4	2	2
Pokiston	2		2
Boshqalar	25	12	13

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

A. Siddiqov
69 211-72-00 (5060)

Maznil:

160133, Namangan sh.,
N.Namangoniy ko'chasi, 14
